

KARIMOVA Munira

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,
arab-ingliz yo'nalishi, 3-kurs talabasi.
munirakarimova611@gmail.com*

ABU ISO TERMIZIYNING “SHAMOILI MUHAMMADIYA” ASARIDAGI TASHBEHLARGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЕ К МЕТАФОРАМ В “ШАМОИЛИ МУХАММАДИЯ” АБУ ИСЫ АТ- ТИРМИЗИ

SOME REFLECTIONS ON METAPHORS IN “SHAMOILI MUHAMMADIYA” BY ABU ISA AT-TERMIZI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rasululloh (s.a.v) siyratlariga taalluqli hadisi shariflarda kelgan o'xshashlikni ifodalash uchun qo'llangan grammatik unsurlar tahlil qilinadi. “o'xshatish”, “tashbeh” va “metafora” kabi ilmiy atamalarining ayrim qirralari hamda tashbehning turlariga e'tibor beriladi. Maqola xulosasida tarkibida tashbehlarga bo'lgan hadislarining Rasululloh (s.a.v)ning tashqi ko'rinishlarini ifodalashdagi ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, artikl, metafora, tashbeh, harf, o'xshatish, hadislar, yuklama, mutashabbaha, mutashabbaha bihi.

Аннотация: В этой статье анализируются грамматические элементы, используемые для выражения сходства благородных хадисах, связанных с жизнеописанием (сира) Пророка (с.а.в). Рассматриваются некоторые аспекты научных терминов, таких как “сравнение”, “ташбих” и “метафора”, а также виды ташибехов. В заключении статьи подчеркивается важность хадисов, содержащих метафоры, в описании внешности Пророка (с.а.в).

Ключевые слова: лингвистика, артикл, метафора, ташибих, харф, сравнение, хадисы, частица, муташибаба, муташибаба биhi.

Annotation: This article analyzes the grammatical elements used to express the similarity in the hadiths related to the siyrat of the Prophet (s.a.v). Some aspects

of scientific terms such as comparison, tashbeh and metaphor, as well as types of tashbehs are considered. The conclusion of the article emphasizes the importance of hadiths containing tashbehs in expressing the appearance of the Prophet (s.a.v).

Keywords: linguistics, article, metaphor, tashbeh, harf, comparison, hadiths, particle, mutashabbaha, mutashabbaha bihi.

KIRISH

Ahli ilm o'rtasida Payg'ambar Muhammad (s.a.v)ga nozil bo'lgan Qur'oni karim hamda u zotga taalluqli Hadisi shariflarga murojaat qilish mana o'n besh asrki, hanuzgacha davom etib kelmoqda va bundan keyin ham davom etishi tabiiy. Zero, bu tabarruk manbalar tuganmas bir xazinaki, to odamzot bor ekan, aslo tamom bo'lmaydi.

Rasululloh (s.a.v) hadislarini jamlagan, ularni ma'lum bir tartib asosida to'plam holiga keltirgan, Movarounnahrda yetishib chiqqan muhaddislar tarixda ma'lum va mashhurdir. Shulardan birlari Imom Abu Iso Muhammad Termiziy bo'lib, olim 824-yilda Termizda tug'ilganlar. Hadis ilmini mukammal o'rganish maqsadida uzoq yillar Iroq, Isfaxon, Xuroson, Makka hamda Madinada yashaganlar. Umlarining oxirida ko'zlari ojiz bo'lib qolganligi bois “ad-Darir” taxallusi berilgan. Imom Termiziyning ustozlari buyuk alloma, muhaddislar sultoni Imom Buxoriy hazratlari bo'lib, u zot shogirdlarini maqtab kamtarlik bilan: “Sen mendan bahra topganingdan ko'ra men sendan ko'proq bahra topdim”, deya baho bergan ekanlar [5:469]. Allomaning “Shamoili Muhammadiya” kitobida siyratga doir hadislar joy olgan. Bu mo'tabar manbada Muhammad (s.a.v)ga tegishli jami 415 ta hadis bor. Kitob 56 bobdan tarkib topgan bo'lib, har biri ma'lum mavzudagi hadislarini qamrab oladi. Garchand “Shamolili Muhammadiya” nisbatan muxtasar bo'lsa-da, undagi hadislar orqali o'quvchilar Rasululloh (s.a.v)ning xalqiy va xulqiy sifatleri bilan yaqindan tanishadi. Kitob avval Sayyid Mahmud Taroziy (1895-1991) tomonidan turkiy(o'zbekiy) tilga, so'ngra Ubaydulla Uvatov, keyin Ziyovuddin Rahim tomonidan zamonaviy o'zbek tiliga o'girilgan [3:5]. Bunda asosiy e'tibor “Shamoli Muhammadiya” kitobining birinchi bobida kelgan hadislardagi o'xshatishga doir tushunchalarga qaratiladi.

ASOSIY QISM

Aslida ilmiy-nazariy manbalarda “tashbeh”, “o‘xshatish”, “metafora” kabi atamalar o‘zaro yonma-yon qo‘llanadi. Bu o‘rinda yuqoridagi atamalarning lug‘aviy va istilohiy ma‘nolariga qisqa izoh berishga zarurat ham bor.

“O‘xshatish” – tasvir obektini boshqa narsa-hodisaga o‘xshatish orqali yorqin va bo‘rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo‘lib, bunda o‘xshatilayotgan narsa-hodisalar uchun umumiy belgi-xususiyatlarga tayaniladi [6:375].

G‘arb adabiyotshunosligida o‘xshatish va ko‘chim tushunchalari “metafora” atamasiga mos keladi [6:169]. Lug‘aviy jihatdan مَبْش o‘zagidan kelib chiqqan “tashbeh” arabcha so‘z bo‘lib, “o‘xshatish”, “qiyoslash” kabi ma‘nolarni anglatadi. Tashbehning eng go‘zal namunalarini, shubhasiz, Qur‘oni karim oyatlari tarkibida uchrashli arab olimi Abdulloh ibn Mu‘tazz (861-908)ning “Badiiy san‘atlar” kitobida misol sifatida keltiriladi [7:304].

Ilmi badi‘da tashbeh tuzilishi, qiyoslanayotgan narsa – tushunchalar orasidagi o‘xshashlik darajasiga ko‘ra, yana bir qancha turlarga bo‘linadi. Ular quyidagilar:

- تشبيه عكس (tashbehi aks) – teskari o‘xshatish;
- تشبيه اضممار (tashbehi izmor) – yashirin o‘xshatish;
- تشبيه كناية (tashbehi kinoyat) – ko‘chimli o‘xshatish;
- تشبيه مشروطة (tashbehi mashrut) – shartlangan o‘xshatish;
- تشبيه مجمل (tashbehi mujmal) – noaniq o‘xshatish;
- تشبيه مسلسل (tashbehi musalsal) – ketma-ket o‘xshatish;
- تشبيه مطلق (tashbehi mutlaq) – ochiq o‘xshatish;
- تشبيه مفصل (tashbehi mufassal) – to‘liq o‘xshatish;
- تشبيه معقد (tashbehi mu‘aqqad) – noaniq o‘xshatish;
- تشبيه موكد (tashbehi mu‘kkad) – ta‘kidli o‘xshatish;
- تشبيه تفضيل (tashbehi tafzil) – chekinish yo‘li bilan o‘xshatish. [6:319-323]

Ushbu maqolada tashbeh tushunchasi va harflari “Shamoili Muhammadiya”ning birinchi hamda ikkinchi bobida kelgan hadislar misolida o‘rganiladi. Kitobning birinchi bobi “Rasululloh

sollallohu alayhi vasallam tashqi ko‘rinishlari haqida kelgan rivoyatlar”, deb nomlanadi va unda o‘n beshta hadis bor.

Ma‘lumki, arab tilida so‘zlar uch turkumga bo‘linadi:

الاسم – Al-ismu (ism).

الفعل – Al-fe‘lu (fe‘l).

الحرف – Al-harfu (harf).

Harf so‘z turkumiga barcha yordamchi so‘zlar, qo‘shimchalar hamda (ال- al) aniqlik artikli kiradi. Zero, harf turkumga kiruvchi so‘zlar mustaqil holatda ma‘no anglatmaydi, ism yoki fe‘llarga qo‘shilib keladi. Harflar ham o‘z o‘rnida turlarga ajraladi: jar harflari, shart harflari, atf harflari, qasam harflari, zoida harflar va boshqalar.

“Shamoili Muhammadiya”ning birinchi bobidagi beshinchi hadisda Rasululloh (s.a.v)ning tashqi ko‘rinishlari, tana a‘zolari tuzulishi bayon qilingan bo‘lib, yurishlariga doir qismida quyidagi tashbeh keltiriladi:

“... إذا مشى تكفاً تكفوا كأنما ينحط من صيب...” (... yurganda, xuddi balandlikdan tushib kelayotgandek oldinga moyil bo‘lar edilar...) [3:22]

Bu o‘rinda o‘xshashlikni ifodalash uchun كَأَن الحروف المشبهة yuklamasi qo‘llanilmoqda. Bu harf المشبهة “fe‘lga o‘xshash harflar” (ayrim adabiyotlarda “egaga ta‘sir qiluvchi yuklamalar” ham deyiladi) dan biridir. كَأَن tashbeh uchun qo‘llaniladigan harf hisoblanadi. Bu harf doimo o‘zidan keyingi kalimani mansub (tushum kelishigi)da turishini talab qiladi. Uning ismi – مشبهة (o‘xshatilayotgan narsa), xabari به مشبهة (nimaga o‘xshatilayotgani) deyiladi. Shuningdek كَأَن tashbeh harfi matn tarkibida o‘xshatish vositasi – adoti tashbeh sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, yuqoridagi hadisdan olingan qismda ما ينحط من صيب “mutashabbaha”, esa “mutashabbaha bihi” hamda كَأَن adoti tashbeh sanaladi. Grammatik jihatdan izoh berilgan ushbu tashbeh Rasululloh (s.a.v)ning siyratlarini nisbatan tugal tasavvur qilishga yordam beradi.

“Shamoili Muhammadiya”dagi sakkizinchi tartib raqamida kelgan hadisda Payg‘ambarimiz (s.a.v) bo‘yinlari tasvirlanar ekan, bu o‘rinda ham كَأَن tashbeh harfi qo‘llaniladi:

“... كَأَن عُنُقَهُ جِدٌ دَمِيَةٌ فِي صَفَاءِ الْفَضَّةِ...” (...Bo‘yinlari kumushdek tiniq bo‘lib, xuddi haykalning bo‘yniga o‘xshar edi...) (O‘sha manba, 29-30-bet).

Buyerda كَأَن – adoti tashbehdir. “Mutashabbaha” - kalimasi bo‘lib, u Payg‘ambarimiz (s.a.v) ning muborak bo‘yinlariga ishora qilmoqda. جِدٌ

دمية – haykalning bo‘yni (bu o‘rinda fil suyagidan ishlangan haykalning tiniqligi va chiroyliligi nazarda tutilmoqda) esa “mutashabbaha bihi” dir.

Navbatdagi tashbeh qatnashgan hadisi sharif Abu Is‘hoq tomonidan rivoyat qilinadi. Bir kishi Barro ibn Ozib (roziyallohu anhu) dan: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yuzlari qilichga o‘xsharmidi?”, deb so‘radi. Shunda u: “Yo‘q, balki misoli oy edi”, deb javob berdi. Hadisning arabcha matni quyidagicha:

«حدثنا سفیان حدثنا حميد بن عبد الرحمن الرؤاسي، عن زهير، عن ابي اسحاق قال: قال رجل البراء بن عازب رضي الله عنه: ا كان وجه رسول الله صلى الله عليه وسلم مثل السيف؟ قال: لا، بل مثل القمر.»

(O‘sha manba, 40-bet).

Bu hadisda o‘xshatish ikki o‘rinda kuzatiladi. Birinchisi – savol beruvchi insonning nutqida bo‘lsa, ikkinchisi Barro ibn Ozib roziyallohu anhu javoblarida. Savol so‘ragan inson Rasululloh (s.a.v) yuzlarini qilichga o‘xshash yoki o‘xshamasligini so‘raganida, kalimasi qo‘llaniladi. Javob sifatida berilgan jumla tarkibida ham aynan shu so‘z ishlatilgan. Demak, ushbu hadisi nabaviyyada o‘xshashlikni ifodalash uchun so‘zi nasb holatida, ravish predlog vazifasida kelmoqda.

Abu Hurayro (roziyallohu anhu) tomonidan rivoyat qilingan hadisda «كان رسول الله صلى الله عليه...» (Rasululloh (s.a.v) oppoq, go‘yo kumushdan quyilgandek edilar...), deya ko‘rinishlari ta’riflanadi (O‘sha manba, 41-bet). Bu yerda ham xuddi yuqoridagi hadislardagi kabi tashbeh o‘rinlarida adoti tashbeh, esa “mutashabbaha” bo‘lib kelmoqda. صيغ من فضة esa bu o‘rinda “mutashabbaha bihi” hisoblanadi.

Biz tahlil qilayotgan 1-bobning so‘nggi, ya‘ni 15-hadisida ham Muhammad (s.a.v) ning siyratlarini tasvirlashda tasvirni inson ko‘z oldida yaqqol gavdalanishiga yordam beruvchi vosita hisoblangan tashbeh qo‘llanilgan.

«... اذا تكلم رئي كالنور يخرج من بين ثماياه...»

Tarjmasi: “...Gapirganlarida tishlari orasidan chiqayotgan nurdek ko‘rinardi...” (O‘sha manba, 45-bet). Bu hadis Ibn Abbos (roziyallohu anhu) dan rivoyat qilingan. Rasululloh (s.a.v) old tishlari orasi bir oz ochiq bo‘lib, agar gapirsalar, shu oraliqdan go‘yoki nurga o‘xshash narsa-alomat chiqayotgandek ko‘rinishi hadisda ta’kidlanmoqda. Bu o‘rinda tishlar orasidan chiqayotgan belgi nurga o‘xshatilishi kuzatiladi. O‘xshatishni ifodalash vazifasi harfiga yuklatilgan. Bu qo‘shimcha jar

harflaridan biri hisoblanib, u ham tashbeh uchun qo‘llaniladi. Shuningdek, bu harf ba‘zi o‘rinlarda zoida harfi bo‘lishi mumkin. حروف الجر - jar harflari o‘zidan keyin kelayotgan so‘zni qaratqich kelishigida, ya‘ni jar holatida kelishini talab qiladi. Yuqoridan ham ko‘rishimiz mumkinki, “nur” so‘zi jar holatida turibdi. ك harfining كان dan farqli jihati shundaki, matnda dastlab “mutashabbaha”, so‘ng “adoti tashbeh”, keyin esa “mutashabbaha bihi” o‘rin oladi. Ya‘ni “adoti tashbeh” bilan “mutashabbaha” o‘zaro o‘rin almashadilar.

“Shamoili Muhammadiya”ning ikkinchi bobi “Nubuvvat muhri haqida kelgan rivoyatlar”, deb nomlanib, unda jami sakkizta hadis mavjud. Bu bobda Muhammad (s.a.v) ning payg‘ambar ekanliklarini tasdiqlovchi omil, ya‘ni “nubuvvat muhri” vasf etiladi. Ayrim rivoyatlarda kelishicha, ahli kitoblardan bo‘lgan ilmi kishilar aynan shu muhrni ko‘rgach, islomni qabul qilishgan ekan.

Tartib raqami o‘n oltinchi bo‘lgan hadisi sharifda Soib ibn Yazid (roziyallohu anhu) muhrni shunday ta’riflaganalar:

«...هو مثل زر الحجلة...» (...u kaklik tuxumidek...)

Bu hadisda o‘xshashlikni ifodalash uchun kalimasi qo‘llanilmoqda. Yuqorida ko‘rib chiqqan hadislarimizda e’robi fatha bo‘lilib, ravish predlog vazifasini bajargan edi. Bu yerda esa e’rob damma bo‘lib endi o‘zidan keyingi so‘zi bilan izofani tashkil qilyapti. Shu o‘rinda izofa zanjirini ham kuzatishimiz mumkin: so‘zi bir vaqtning o‘zida ham muzof, ham muzof ilayhi. Ya‘ni uchun muzof ilayhi, الحجلة uchun esa muzofdir.

Hadisda “mushabbaha” – olmoshi bo‘lib, u nubuvvat muhriga ishora qilyapti. “Mushabbaha bihi” esa adoti tashbeh, birikmasi, hujjat “adoti tashbeh” vazifasida kelgan.

Jobir ibn Samura (roziyallohu anhu) rivoyat qilgan hadislarida esa nubuvvat muhri kabutar tuxumiga o‘xshatiladi:

«...مثل بيضة الحمامة...» (...kabutar tuxumidek...)

Bu hadisda ham ravish predlog vazifasini bajaryapti.

Nubuvvat muhri ta’riflangan bir qator hadislarida uning joylashuv o‘rni ham aytib o‘tiladi. Muhr Rasululloh (s.a.v) ikki kuraklari orasida bo‘lib, chap tomoni, ya‘ni yurakka yaqinroqligi ta’kidlanadi. Sahobalar muhrni ko‘rishga doim orzumand bo‘lishgan, ko‘rishga musharraf

bo'lganlari esa o'zlarini baxtiyor sanashgan. Biz ham muhrning sifatlarini ana o'sha sahobalar rivoyatlarini o'rganib chiqqachgina bilishimiz mumkin. Zero, suyuqli Payg'ambarimizga tegishli har bir ma'lumot biz uchun qiziq.

Bu bobga yakun yasovchi yigirma uchinchi tartib raqamida muhr ta'rifida yangiliklarni uchratishimiz mumkin:

«...مَثَلُ الْجَمْعِ حَوْلَهَا خِيَلَانُ كَانَهَا ثَالِي...» (...mushtga o'xshash, atrofida no'xat donalaridek xollar bor...)

Shu birgina jumlada ikki o'rinda tashbeh qo'llanilgan. Dastlab muhr mushtga qiyoslanadi, bu o'rinda “mutashabbaha” tushib qolgan. So'ngra musht atrofida xollar ham borligi ta'kidlanadi. Xollar esa no'xat donalariga o'xshatiladi. Ikkinchi tashbehni ifodalash uchun كان harfi ishlatilgan hamda ها birikma olmoshi qo'shilib, u xollarga ishora qiladi. Arab tilida shunday qoida borki, muzakkar jinsidagi ko'plikdagi ismlar muannas birlikka teng. Bu o'rinda ham xollar muzakkar jinsida bo'lishiga qaramay, yuqoridagi qoidaga amal qilgan holda, ularga nisbatan muannas birlikdagi birikma olmoshi qo'llanilgan.

Arab tilida qo'shma gapning shunday turi mavjudki, unda bosh gapdagi ish harakat ergash gapdagi ish harakatga o'xshatiladi. Bunday gaplarga “o'xshatish ergash gapli qo'shma gap” deyiladi [۴:۴۰۱]. Yuqorida tahlil qilingan hadisi shariflar tarkibida o'xshashlikni ifodalash uchun qo'llanilayotgan كَان hamda كَانَمَا singari yordamchi so'zlar aynan o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarni bog'lash vazifasini ham bajaradi.

Yuqorida sanab o'tilgan har bir tashbeh turi matnda qo'llanilar ekan, u inson ongida tasvir namoyon bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biz tahlil qilgan hadisi shariflarda asosan تشبيه مطلق – mutlaq tashbeh qo'llanilgan. Bu tashbehning yana bir nomi *tashbehi sarih*dir. Bu tashbeh turining boshqalaridan farqi shundaki, unda “mushabbaha” va “mushabbaha bih” o'rtasida o'xshatish vositasi, ya'ni “adoti tashbeh” bo'lishi shart. Vosita tashbehning aniq, ochiq hamda ravshanligini belgilovchi omil sanaladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'xshatish, tashbeh bugungi zamon odamlariga olis o'tmishda o'tgan tarixiy shaxslarning, xususan, yuqoridagi ayrim hadislar sharhida kuzatilganidek, Rasululloh (s.a.v) ning siyratlarini tugal tasavvur qilishga yordam

beradi. Ikkinchidan, yuqoridagi berilgan matnlar tarkibida kelganidek tashbehda oy, kumush, nur kabi o'xshatmalar insonning ham jismoniy, ham ma'naviy olamini teran anglashga ham xizmat qiladi. Umuman olganda, hadisi shariflar tarkibida keladigan turli adabiy hodisalar arab tili grammatikasiga doir tushunchalarni nisbatan mukammal izohlash uchun ham eng munosib misol bo'la oladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Atoullloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi' / Forschadan Alibek Rustamov tarjimasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
2. An-Naim: arabcha-o'zbekcha lug'at. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003. – 960 b.
3. Imom Abu Iso Muhammad Termiziy. Shamoili Muhammadiya / Tarjima va sharh muallifi -Ziyovuddin Rahim. – Toshkent: Sharq, 2020.
4. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. – Toshkent. “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 1997.
5. Ислон. Энциклопедия: А-Х / Шайх Абдулазиз Мансур тахрири остида. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. – 672 б.
6. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademyashr, 2010.
7. Sharq mumtoz poetikasi / professor Hamidulla Boltaboev talqinida. – Toshkent: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2008.